ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI RAQAMLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Ibragimova Ruhsora Sur'at qizi
Toshkent shahar Yunusobod tumani
53-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.21784305

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvni raqamlashtirish muammosi ta'lim menejmenti nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanayapti, shuningdek, pedagogik amaliyotga yo'naltirilgan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv-ma'muriy jarayonlarini raqamlashtirish masalasini kengroq o'rganishni taqozo etadi. Shuning uchun biz aynan maktabgacha ta'limda raqamli transformatsiya jarayonini o'rganishga e'tiborimizni qaratdik.
Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, raqamli boshqaruv, BBIT.UZ, NODAVLAT-BOG'CHA.UZ, ta'lim menejmenti, elektron boshqaruv tizimi, samaradorlik mexanizmlari, raqamli transformatsiya.

Ta'lim tizimlarini raqamlashtirish jarayoni so'nggi o'n yillikda jahon ta'limshunosligining markaziy mavzularidan biriga aylandi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) ham o'z navbatida ta'lim tizimlarining raqamli ekotizimini yaxlit boshqarish zaruratini ta'kidlaydi, chunki alohida texnologik yechimlarni joriy etish o'zi-o'zidan institutsional samaradorlikni ta'minlamaydi.

Bugungi kunda erta bolalik ta'limi va tarbiyasi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola miyasining asosiy rivojlanish jarayonlari aynan maktabgacha yosh davrida shakllanadi. Shu sababli bu bosqichda berilgan ta'lim, yaratilgan muhit va kattalarning yondashuvi bolaning kelajakdagi o'qish qobiliyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy dunyoda bu jarayon endi faqat an'anaviy tarbiya bilan cheklanib qolmay, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda olib borilmoqda.

Ayni paytda, maktabgacha ta'lim bosqichi bu jarayonda alohida o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, erta yoshdagi bolalar ta'limida raqamli texnologiyalar mavzusidagi tadqiqotlarning asosiy qismi pedagogik amaliyot — interaktiv o'yinlar, tarbiyachining raqamli kompetentligi, bolalar rivojlanishiga ta'sir kabi masalalarga bag'ishlangan bo'lib, boshqaruv, institutsional samaradorlik va ma'muriy jarayonlarni raqamlashtirish masalasi esa ancha kam yoritilgan.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar 2017-yildan boshlab institutsional jihatdan jadallashdi. 2019-yil 16-dekabrda esa "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-son qonun qabul qilinib, har bir bolaga maktabgacha tayyorgarlikning bir yillik kafolati belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi 4312-son qarori bilan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Natijada 3–6 yoshli bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi 2012-yildagi 23 foizdan belgilangan 74 foiz ko'rsatkichga yetdi. Maktab tayyorlov guruhlarini esa 2024/25 o'quv yiliga 100 foizga yetkazish vazifasi qo'yildi, 2026-yil fevralida esa maktabgacha tayyorgarlikning bir yillik bosqichi majburiy deb e'lon qilindi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim boshqaruvini raqamlashtirish alohida texnologik yechim emas, balki institutsional boshqaruv siyosatining tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda. Germaniyaning milliy ta'lim platformasi loyihasi misolida ko'rishimiz mumkinki, bunday platformalarni joriy etish nafaqat texnik integratsiyani, balki aniq boshqaruv prinsiplari — manfaatdor tomonlarni jalb qilish, ma'lumotlardan foydalanish tartibini tartibga solish va monopollashuvdan himoya mexanizmlarini ham talab qiladi. Bizning fikrimizcha, davlat boshqaruvidagi markazlashgan platformalar samarali hamkorlikni ta'minlashi mumkin bo'lsa-da, ayni paytda

foydalanuvchilar manfaatlarini suiiste'mol qilish xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin, shu bois boshqaruv-me'yoriy asos platforma arxitekturasidan oldin ishlab chiqilishi lozim.

Xorijiy tajribadan olingan muhim jihatlardan biri shundaki, milliy darajadagi raqamli platformalarni joriy etish faqat texnik masala bo'lmay, balki aniq boshqaruv-me'yoriy asosni talab qiladi (Gleiß et al., 2023). Bu xulosa O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega: agar maktabgacha ta'lim uchun yagona raqamli boshqaruv tizimi yaratilsa, u yerda bolalar shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash, ota-onalarning roziligini rasmiylashtirish va ma'lumotlardan foydalanish doirasini aniq belgilash masalalari oldindan hal etilishi lozim, aks holda tizimga bo'lgan ishonch pasayishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida BBIT.UZ va NODAVLAT-BOG'CHA.UZ elektron boshqaruv platformalaridan foydalaniladi. "Bolalar bog'chasi" axborot tizimida barcha davlat MTT xodim va tarbiyalanuvchilarining elektron davomatini yuritish, ish vaqti tabelini shakllantirish, tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat xarajatlarini natura shaklida hisoblash, bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi (keyingi o'rinlarda — ota-onalar to'lovi) hamda boshqa to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratish imkonini beradi. "Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish" axborot tizimi orqali davlat-xususiy sheriklik asosida oilaviy MTTlarni tashkil etish bo'yicha elektron arizalar berish, bitimlar imzolash, nodavlat MTTlarda xodimlar va tarbiyalanuvchilarning elektron davomatini yuritish, ular asosida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan subsidiya va kompensatsiya miqdorlarini hisoblash hamda to'lash jarayonlari raqamlashtirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Bu platforma xodimlarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish va boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tizimning shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, yangi sharoitlardan kelib chiqib, axborot materiallarini Internet jahon axborot tarmog'ida va ommaviy axborot vositalarida aks ettirib borish choralarini ko'rish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim vazirligining 2022 yil 18-yanvardagi "Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimini takomillashtirilgan yangi talqinini ishga tushirish hamda uzluksiz faoliyatini ta'minlash to'g'risida"gi 7- sonli buyrug'i asosida 2022-yil yanvar oyidan elektron dasturda o'zgarish kiritilib, yangi Bolalar bog'chasi axborot tizimi ishga tushirildi.

"Bolalar bog'chasi axborot tizimi API (Dasturlash interfeysi) orqali Maktabgacha ta'lim vazirligi sayti http://mdo.uz/directory va Yagona davlat xizmatlari portali https://my.gov.uz ga bog'langan. Tuman maktabgacha ta'lim bo'limlari yoki maktabgacha ta'lim tashkilotlari "Bolalar bog'chasi" tizimiga kiritgan ma'lumotlar bir zumda tizim bilan bog'liq saytlarda paydo bo'ladi. Bu tizimda turli korrupsion holatlarni olidini olishga xizmat qiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta'limda pedagog va ota-onaning raqamli savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalarni ongli, xavfsiz va maqsadli qo'llash bolalar uchun foydali ta'lim muhitini yaratadi. Raqamli platformalar bolaning qiziqishini oshiradi, mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi va o'yin orqali ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi. Eng muhimi, ular pedagog va oilani yagona maqsad — bolaning har tomonlama rivoji yo'lida birlashtiradi.

Bugungi ta'lim muhiti texnologiya va insoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslanishi kerak. Raqamli vositalar pedagogning o'rnini bosmaydi, balki uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Ota-ona va tarbiyachi o'rtasidagi hamkorlik kuchaygan sari bola uchun barqaror, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi muhit shakllanadi. Shu sababli ta'limiy platformalardan foydalanish zamonaviy maktabgacha ta'limning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda va u kelajak avlodni tayyorlashda muhim strategik vositaga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2020-yil 5-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. 2019-yil 8-may, PQ–4312.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O‘RQ–547.
4. Ismoilov S., Xudoyberdiyev J. Ta’limda raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Abduqodirov A., Begimqulov U. Pedagogik jarayonlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris, 2013.
7. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. – 2021.